


23. Sonlarni 10, 100, 1 000 ga ko'paytirish va bo'lish




Yondosh mavzu:
Banknotlar, kupyuralar


Ko'paytirish,
bo'lish,
pul birliklari




1. Rasmga qarab hisoblang.



$$10 \cdot 8$$



$$100 \cdot 5$$



$$1\,000 \cdot 2$$



2. Qo'shishni ko'paytirish bilan almashtiring. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $10 + 10 + 10 + 10 + 10$

b) $100 + 100 + 100 + 100 + 100 + 100 + 100 + 100 + 100$

d) $1\,000 + 1\,000 + 1\,000 + 1\,000 + 1\,000 + 1\,000 + 1\,000$

e) $10\,000 + 10\,000 + 10\,000 + 10\,000 + 10\,000 + 10\,000$

f) $100\,000 + 100\,000 + 100\,000 + 100\,000$



Sonni 10, 100, 1 000, ... ga ko'paytirish uchun ikkinchi ko'paytuvchida nechta nol bo'lsa, sonning oxiriga shuncha nolni yozish kerak.

$$3 \cdot 10 = 30$$

$$7 \cdot 100 = 700$$

$$9 \cdot 1\,000 = 9\,000$$

Sonni 10, 100, 1000, ... ga bo'lish uchun bo'luvchida nechta nol bo'lsa, bo'linuvchida shuncha nolni o'chirish kerak.

$$70 : 10 = 7$$

$$600 : 100 = 6$$

$$50\,000 : 1\,000 = 50$$



3. Masaladagi savolga javob berish uchun ifoda tuzing.

Boburning otasi maosh oldi. Maosh 27 ta 100 000 so'mlik banknot va 13 ta 10 000 so'mlik banknotdan iborat. U qancha maosh olgan?

23. Sonlarni 10, 100, 1 000 ga ko'paytirish va bo'lish



4. Hisoblang.

$$38 \cdot 100 =$$

$$76 \cdot 1\,000 =$$

$$4 \cdot 10\,000 =$$

$$9 \cdot 1\,000\,000 =$$

$$1\,284 \cdot 100 =$$

$$3\,090 \cdot 1\,000 =$$



5. Bo'lishni bajaring.

$$60\,000 : 10 =$$

$$5\,000 : 1\,000 =$$

$$137\,000 : 100 =$$

$$250\,000 : 100 =$$

$$78\,000\,000 : 10\,000 =$$

$$405\,030 : 10 =$$



6. Ma'lumotlardan foydalanib, xaridning umumiy qiymatini aniqlang.



1 qutisi uchun
10 000 so'm



1 litri uchun
10 000 so'm



1 kilogrami uchun
100 000 so'm

Sotib olindi: 2 quti sut, 5 kg yong'oq, 8 l o'simlik yog'i.
Jami xarid uchun qancha to'landi?



7. Akmal va Madinaning hamyonida qanchadan pul borligini hisoblang.



100 000 so'm



10 000 so'm



1 000 so'm

Akmal



Madina



Kimning puli ko'p? Qancha ko'p?

23. Sonlarni 10, 100, 1 000 ga ko'paytirish va bo'lish



8. Tenglamalarni yeching.

$$x \cdot 10\,000 = 670\,000$$


$$y : 100 = 376\,000$$



9. Ona tufli xarid qilish uchun quyidagi kupyuralarni to'ladi. Tufli qancha turadi?



10. Bitta albom necha so'm? Bir quti bo'yoq qancha turadi?



11. Hisoblang.

$$65\,000\,000 : 100$$

$$70\,090\,000 : 10\,000$$

$$1\,009 \cdot 100$$

$$238 \cdot 100\,000$$

$$700 : 100 \cdot 1\,000$$

$$207 \cdot 1000 : 100$$



12. Ona do'konda 537 000 so'm sarfladi. U sotuvchiga 5 ta 100 000 so'mlik kupyura va 4 ta 10 000 so'mlik kupyura berdi. Sotuvchi qancha qaytim berishi kerak?